



## MUALLIFLIK HUQUQI OBYEKTI SIFATIDA OPERATSION TIZIMLARING O'RNINI VA ULARNING HUQUQIY TABIATI

Nasriddinov Ramazon Dilshod o'g'li

*Master student of Tashkent State University of Law*

[nasriddinov.ramazon19@gmail.com](mailto:nasriddinov.ramazon19@gmail.com)

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ham O'zbekiston Respublikasining Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunida ham elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazasi mualliflik huquqining obyekt sifatida qaralgan. Shu sababli bu atamalar qanday huquqiy ma'no kasb etishini yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlardan, avvalo tekshirib olishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasi "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi qonuniga ko'ra ma'lumotlar bazasi – obyektiv shaklda ifodalangan hamda elektron hisoblash mashinalari yordamida toppish va ishlov berish mumkin bo'ladigan tarzda bir tizimga solingan ma'lumotlar majmui. Elektron hisoblash mashinalari uchun dastur esa – obyektiv shaklda ifodalangan hamda muayyan natija olish maqsadida Elektron hisoblash mashinalari, elektron hisoblash mashina shoxobchalari va boshqa kompyuter vositalarining ishlashi uchun mo'ljallangan ma'lumotlar va ko'rsatmalar majmui<sup>63</sup>.

A. Nahotkinning fikricha kompyuter dasturi deganda kompyuterlar va boshqa kompyuter qurilmalarining ishlashi uchun mo'ljallangan obyektiv shaklda taqdim etilgan ma'lumotlar va buyruqlar to'plami va kompyuter dasturini ishlab chiqish jarayonida olingan tayyorgarlik materiallari va ular tomonidan yaratilgan audiovisual displeylar tushinilishi lozim<sup>64</sup>. Operatsion tizimlar mualliflik huquqining obyekt sifatida ko'radigan bo'lsak, ular o'z o'zidan mualliflik huquqi doirasida himoya qilinishi lozim. Ma'lumki, mualliflik huquqi himoya qilinishi uchun patentlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart emas. Ammo operatsion tizimlarning huquqiy himoyasini yanada samarali ta'minlash uchun ko'pgina olimlar ular patentlanishi kerak deb hisoblaydilar. Bunday fikrga qarshi chiqadigan olimlar ham talaygina shunday olimlardan biri I.A. Zenin hisoblanadi. Uning fikricha Operatsion tizimlar ayniqsa kompyuter dasturlari va algoritmlar patent huquqi doirasida himoya qilinishi kerakdek tuyulsa ham ular mualliflik huquqi doirasida himoya qilinadi<sup>65</sup>. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 1259-moddasida ham kompyuter uchun dasturlar mualliflik huquqi doirasida himoya qilinishi lozim ekanligi keltirilgan.

Yevro parlamenti 2009/24/YCning direktivasi birinchi moddasiga muvofiq a'zo davlatlar kompyuter dasturlarini adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish bo'yicha Bern konvensiyasiga asosan adabiy asarlar sifatida mualliflik huquqi bilan himoya qiladilar.

<sup>63</sup> O'zbekiston Respublikasi "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"

<sup>64</sup>Находкин А.А. ПРОГРАММЫ ДЛЯ ЭВМ КАК ОБЪЕКТЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЙ  
Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 10 (55) ОКТЯБРЬ 2022 г.

<sup>65</sup> Зенин И.А. Право интеллектуальной собственности: Учебник. М.: Юрайт, 2011. С. 55;



Ushbu Direktivning maqsadlari uchun “kompyuter dasturlari” atamasi ularning tayyorlovchi dizayn materiallarini o‘z ichiga oladi. Direktivaga muvofiq himoya istalgan turdagi kompyuter dasturlari uchun qo‘llaniladi, ammo dasturlarning interfeysini ifodalovchi elementlar bu direktiva bilan tartibga solinmaydi. Bu dasturlarni himoya qilish uchun dasturning orginalligining o‘zi kifoya, uni boshqa shartlar asosida tekshirishning xojati yuq<sup>66</sup>.

Yuqoridagi Direktivaning 2-moddasida kompyuter dasturlari uchun huquq egasi maqomini olish to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Unga ko‘ra EHM uchun dastur muallifi sifatida dasturni yaratgan jismoniy shaxs yoki jismoniy shaxslar guruhi yoki a‘zo davlatlarning qonunchili ruxsat bergan bo‘lsa, yuridik shaxs ham EHM uchun dasturning muallifi bo‘lishi mumkin. Agar jamoaviy asarlar a‘zo davlat qonunchiligida e‘tirof etilgan bo‘lsa, a‘zo davlat qonunchiligida asarni yaratgan deb hisoblangan shaxs uning muallifi hisoblanadi. Bir guruh jismoniy shaxslar tomonidan birgalikda yaratilgan EHM dasturiga nisbatan mutlaq huquqlarga birgalikda egalik qilinadi. Agar kompyuter dasturi xodim tomonidan o‘z vazifalarini bajarish yoki ish beruvchining ko‘rsatmalariga binoan yaratilgan bo‘lsa, ish beruvchi, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, faqat shunday yaratilgan dastur bo‘yicha barcha huquqlaridan foydalanishga haqli<sup>67</sup>.

Yuqoridagi Yevropa direktivasiga o‘xshash tarzda 1994-yilda Ukrainada qabul qilingan “Mualliflik va Turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunida ham kompyuter programmalariga ta‘rif berilgan. Unga ko‘ra ma‘lum bir ishni bajarish uchun kompyuter o‘qishi mumkin bo‘lgan so‘zlar, raqamlar, kodlar, diagrammalar, symbollar va boshqa shakldagi formalarning kompyuter uchun maqbul shakli kompyuter programmali va operatsion tizimlar hisoblanadi. Ukraina qonunchiligiga ko‘ra operatsion tizimlar yoki kompyuter programmali mualliflik huquqi doirasida himoya qilinsa ham, ularning asosiy elementi hisoblangan algoritmlarning himoyasi hali ham so‘roq ostida qolmoqda.

1957-yilda qabul qilingan Hindiston mualliflik to‘g‘risidagi (Copyrights Act) qonunchiligida ham operatsion tizimlarni mualliflik huquqi doirasida ko‘radi va ko‘proq ularning orginalligiga e‘tibor beradi<sup>68</sup>. Yoki Buyuk Britaniya qonunchiligiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ularda Mualliflik huquqi kompyuterda, planshetlarda, smartfonlarda yoki video o‘yinlarda ishlatiladigan har qanday texnologik ishlarni “copyrights” bilan himoya qiladi. Shu bilan bu huquq doirasida internet web saytlari, bloglar va boshqa internet kontentlarini ham himoya qilinadi<sup>69</sup>.

<sup>66</sup> DIRECTIVE 2009/24/EC OF THE EUROPEAN PARLIAMENT AND OF THE COUNCIL of 23 April 2009 on the legal protection of computer programs <https://eur-lex.europa.eu/LexUriServ/LexUriServ.do?uri=OJ:L:2009:111:0016:0022:EN:PDF#:~:text=Object%20of%20protection&text=In%20accordance%20with%20the%20provisions,of%20Literary%20and%20Artistic%20Works>.

<sup>67</sup> DIRECTIVE 2009/24/EC OF THE EUROPEAN PARLIAMENT AND OF THE COUNCIL of 23 April 2009 on the legal protection of computer programs <https://eur-lex.europa.eu/LexUriServ/LexUriServ.do?uri=OJ:L:2009:111:0016:0022:EN:PDF#:~:text=Object%20of%20protection&text=In%20accordance%20with%20the%20provisions,of%20Literary%20and%20Artistic%20Works>.

<sup>68</sup> Jain, Sankalp, Legal Protection of Computer Software in India (July 3, 2014). URL: [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=2462269](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2462269)

<sup>69</sup> Copyright Law Basics For UK Software Developers. URL: <https://www.smashingmagazine.com/2018/03/copyright-law-basics-for-uk-software-developers/>



Bundan kelib chiqadiki yuqoridagi obyektarning barchasi intellektual mulk huquqining obyektlari hisoblanadi.

Kanada (according to Canadian Act)<sup>70</sup>, Pokiston<sup>71</sup> yoki Amerika qonunchiliga<sup>72</sup> ham kompyuter programmalari va operatsion tizimlar Intellektual mulk huquqining obyektlari sifatida keltirilgan. To'g'ri turli huquq tizimlarida kompyuter programmalariga va operatsion tizimlarga berilgan tariflar turlicha bo'lishi mumkin, ammo ularning barchasida u intellektual mulk obyekti sifatida keltirilgan. Shu bilan birga bu farq operatsion tizimlarning huquqiy himoyasini ta'minlashda ham ko'rinishi mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan har qanday texnologik ishlar (only software) intellektual mulk huquqining obyekti sifatida qaralishi lozim.

---

<sup>70</sup> Canada Copyright Modernization Act (S.C. 2012, c. 20, An Act to amend the Copyright Act).

<sup>71</sup> Copyright protection in Pakistan. URL: <http://www.pakistanlaw.com/copysoft.htm>

<sup>72</sup> <https://www.derechosautor.com/copyright/Ley-de-Derecho-de-Autor-de-los-EE.UU-U.S.-Copyright-Act.pdf>